



SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-aprel






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **5 353** tani tashkil etib, 2022- yil 1- may nisbatan **154** taga kamaygan (o'sish sur'ati **97,2 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **83** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **5 240** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **5 309,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **104,9 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **160,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,0 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 148,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 135,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **115,1 %**) tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	5309,4	104,9	160,7	103,0	5148,7	105,0
Termiz sh. <i>tumanlar:</i>	918,8	108,5	36,4	104,1	882,4	108,6
Oltinsoy	253,8	113,5	2,7	91,7	251,1	113,8
Angor	246,1	99,8	8,9	66,3	237,2	101,8
Bandixon	74,7	122,1	1,0	84,3	73,7	122,8
Boysun	233,0	103,5	1,6	87,5	231,4	103,6
Muzrabot	227,2	100,0	2,2	96,1	225,0	100,0
Denov	1185,3	102,9	64,1	148,7	1121,2	101,1
Jarqo'rg'on	284,0	102,2	9,2	91,8	274,8	102,6
Qumqo'rg'on	236,0	97,4	2,8	87,8	233,2	97,6
Qiziriq	247,8	107,1	1,8	57,4	246,0	107,8
Sariosiyo	204,9	106,6	2,7	86,8	202,2	106,9
Termiz	109,3	104,0	4,5	64,4	104,8	106,8
Uzun	257,2	109,9	3,0	95,4	254,2	110,1
Sherobod	309,4	104,1	11,1	99,5	298,3	104,3
Sho'rchi	521,9	104,8	8,7	56,2	513,2	106,4

2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan viloyatning Bandixon (**122,1 %**), Oltinsoy (**113,5 %**), Uzun (**109,9 %**) tumanlarida va Termiz.sh (**108,5 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-aprel, mlrd.so'm)




So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **109,3 %** ni yoki **4 491,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)**
(2022- yil, 2023- yil yanvar-aprel oylari)



2023- yilning yanvar-aprel oylarida o'sish sur'ati **104,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumanida **22,3 %** bilan **1 185,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Bandixon tumani **1,4 %** bilan **74,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 148,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **5,0 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **97,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **3,0 %** ga o'sdi va **160,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **3,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (**99,3 %**), Boysun (**99,3 %**) va Muzrabot (**99,0 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Denov 5,4 %), Termiz (4,1 %), Termiz shahri (4,0 %) va Sherobod (3,6 %) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Surxondaryo viloyati	1 886,6	102,5
Termiz sh.	4 675,8	105,0
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	1 346,9	111,2
Angor	1 748,2	97,6
Bandixon	922,6	119,0
Boysun	1 906,5	101,5
Muzrabot	1 507,8	97,8
Denov	2 885,4	100,4
Jarqo'rg'on	1 219,9	99,8
Qumqo'rg'on	944,5	95,2
Qiziriq	2 039,4	105,0
Sariosiyo	918,3	104,3
Termiz	1 324,6	101,6
Uzun	1 399,4	107,6
Sherobod	1 497,4	102,0
Sho'rchi	2 334,0	102,4

2023- yilning yanvar-aprel holatiga, o'ttacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 886,6** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **102,5 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (**4 675,8** ming. so'm), Denov (**2 885,4** ming. so'm) va Sho'rchi (**2 334,0** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 135,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **115,1 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **489,7** mlrd. so'mni (**127,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **645,9** mlrd. so'mni tashkil etdi (**107,1 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi mlrd. so'm



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1135,6	115,1	489,7	127,8	645,9	107,1
Termiz sh.	81,5	210,9	81,5	2,1 m		
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	113,9	136,1	36,3	191,7	77,6	119,8
Angor	38,9	77,7	27,0	85,3	11,9	64,4
Bandixon	60,8	128,0	5,2	135,7	55,6	127,5
Boysun	67,7	104,9	27,1	98,6	40,6	109,5
Muzrabot	92,8	83,1	30,8	92,3	62,0	79,2
Denov	120,5	127,9	74,0	144,6	46,5	108,0
Jarqo'rg'on	60,5	91,2	17,9	65,4	42,6	109,3
Qumqo'rg'on	72,9	80,8	19,7	60,5	53,2	92,2
Qiziriq	84,2	121,6	28,9	144,9	55,3	112,3
Sariosiyo	87,7	128,1	21,3	96,4	66,4	143,0
Termiz	30,6	101,5	4,9	124,2	25,7	97,9
Uzun	84,9	133,8	48,2	166,4	36,7	106,4
Sherobod	39,5	132,7	30,1	153,5	9,4	92,7
Sho'rchi	99,2	126,7	36,8	156,2	62,4	114,2

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, savdo aylanmasi hajmi **489,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**244,7** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 244,7
	Non va non mahsulotlari 63,5
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 49,1
	Tovuq go‘shti 15,3
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yong‘oq, bodom, pista va boshqalar) 25,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 19,2
	Tuxum 20,2
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 9,8
	Ziravorlar 10,6
	Tuzlamalar 14,0
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 7,4
	Nooziq-ovqat tovarlari 10,3

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **645,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **493,3** mlrd. so'm, qo'y va echkilar – **146,2** mlrd. so'mni, otlar – **4,6** mlrd. so'mni, parrandalar – **1,8** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so'm
 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	308,7
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	101,0
 1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	83,6
 Qo'ylar	119,3
 Otlar	4,6
 Echkilar	26,9
 Kurka, o'rdak, g'oz	0,7
 Tovuqlar	1,0
 Quyonlar	0,1
 Qushlar	0,0

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni **1 433** tani tashkil etib, 2022- yil 1- may holatiga nisbatan **160** taga kamaygan va o'sish sur'ati **89,9 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 431** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,2 %** ni tashkil etib, **118,8** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,3 %** ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining **99,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	118,8	101,3	0,4	12,2	118,4	104,2
Termiz sh.	44,3	103,7			44,3	103,7
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	2,8	103,2			2,8	103,2
Angor	5,5	104,4			5,5	104,4
Bandixon	0,3	104,6			0,3	104,6
Boysun	3,1	103,9			3,1	103,9
Muzrabot	2,9	106,3			2,9	106,3
Denov	21,6	104,3			21,6	104,3
Jarqo'rg'on	4,0	105,0			4,0	105,0
Qumqo'rg'on	3,6	106,6			3,6	106,6
Qiziriq	2,9	104,4			2,9	104,4
Sariosiyo	3,6	104,6			3,6	104,6
Termiz	8,1	103,5	0,4	113,0	7,7	104,3
Uzun	2,9	49,4			2,9	107,3
Sherobod	7,2	104,2			7,2	104,2
Sho'rchi	6,0	103,5			6,0	103,5

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- may holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **657,9** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **22,1** % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **284,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **110,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **373,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **132,8** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	657,9	100,0
Termiz sh.	299,5	45,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	0,4	0,1
Angor	5,2	0,8
Bandixon		
Boysun	0,8	0,1
Muzrabot	0,3	0,1
Denov	324,6	49,3
Jarqo'rg'on	8,7	1,3
Qumqo'rg'on	1,0	0,2
Qiziriq	0,3	0,1
Sariosiyo	4,0	0,6
Termiz	3,4	0,5
shahri	0,5	0,1
Sherobod	1,3	0,2
Sho'rchi	7,9	1,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Denov tumani (**324,6** mlrd. so'm) va Termiz shahri (**299,5** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 148,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **1,4 %** ga o‘sdi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **960,2** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **106,6 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **83,6 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori oʼsish surʼatlariga eng yirik korxonalar Shoʼrchi (**444,6 m.**) va Uzun (**233,0 m.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat koʼrsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 263** tani tashkil etib, 2022- yil 1- may holatiga nisbatan **1** taga oshgan, oʼsish surʼati **100,0 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat koʼrsatayotgan yirik korxonalar soni **37** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 226** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. soʼm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. soʼm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. soʼm	2022- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1148,3	101,4	188,1	81,1	960,2	106,6
Termiz sh.	320,6	117,5	79,1	173,0	241,5	106,4
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	22,0	77,3	0,6	7,1	21,4	105,2
Angor	47,3	106,0		47,1	47,3	106,1
Bandixon	4,6	105,0			4,6	105,5
Boysun	13,6	103,6	0,4	68,9	13,2	105,2
Muzrabot	5,9	36,2	0,2	2,1	5,7	105,8
Denov	315,9	99,8	37,3	64,0	278,6	107,8
Jarqoʼrgʼon	78,5	103,1	0,1	3,8	78,4	105,6
Qumqoʼrgʼon	46,1	51,6	24,0	35,1	22,1	105,4
Qiziriq	19,0	107,2	0,1	24,2 m	18,9	106,8
Sariosiyo	78,5	107,6	2,9	177,8	75,6	106,0
Termiz	86,6	99,6	1	16,3	85,6	106,3
Uzun	23,7	174,7	9,3	172,6 m	14,4	107,0
Sherobod	39,0	160,9	13,4	319,0 m	25,6	105,9
Shoʼrchi	47,0	84,2	19,7	65,9	27,3	105,4



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel. 76-225-65-74